



Sadoqatxon NIGMATOVA,
Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: nigmatovasadoqat1@gmail.com

PhD N.Alimova taqrizi asosida

“LE CRAYON” O‘QUV MARKAZI VA XUSUSIY MAKTABI FAOLIYATIGA DOIR MULOHAZALAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada “Le crayon” o‘quv markazi va xususiy maktabida kimyo, biologiya fanlarini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashganligi hamda uning ta‘lim samaradorligiga ta‘sir tahlil qilinadi. Tadqiqotda mazkur muassasalarining o‘quv dasturlari, qo‘llanilayotgan innovatsion pedagogik texnologiyalar, o‘quvchilarning milliy va xalqaro sertifikatlarni qo‘lga kiritishlari, fan olimpiadalari va o‘quv yurtlarga kirish imtihonlaridagi natijalari o‘rganilgan. Maqolada, shuningdek, bunday maktablarning kuchli tomonlari, afzalliklari, jumladan, moddiy-texnik baza, darslarning tashkillanishi, sifati va o‘qituvchilar malakasi kabi masalalar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Kimyo, biologiya, chuqurlashtirilgan fanlar, ixtisoslashtirilgan maktab, xususiy maktab, o‘quv markaz, milliy va xalqaro sertifikatlar, fan olimpiadalari, innovatsion pedagogik texnologiyalar, ta‘lim samaradorligi, loyihaga asoslangan ta‘lim.

КОММЕНТАРИИ О ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ЦЕНТРА И ЧАСТНОЙ ШКОЛЫ «LE CRAYON»

Аннотация

В статье анализируется специализация образовательного центра и частной школы «Le Crayon» в области углубленного преподавания химии и биологии и её влияние на эффективность образования. В исследовании рассматриваются учебные программы этих учреждений, используемые инновационные педагогические технологии, получение учащимися национальных и международных сертификатов, результаты олимпиад по естественным наукам и вступительных экзаменов в учебные заведения. Также рассматриваются сильные стороны и преимущества таких школ, включая материально-техническую базу, организацию занятий, их качество и квалификацию преподавателей.

Ключевые слова: Химия, биология, предметы углубленного изучения, специализированная школа, частная школа, учебный центр, национальные и международные сертификаты, олимпиады по предметам, инновационные педагогические технологии, эффективность образования, проектное обучение.

COMMENTS ON THE ACTIVITIES OF THE “LE CRAYON” EDUCATIONAL CENTER AND PRIVATE SCHOOL

Annotation

This article analyzes the specialization of “Le Crayon” educational center and private school in the field of advanced teaching of chemistry and biology and its impact on educational effectiveness. The study examines the curricula of these institutions, the innovative pedagogical technologies used, the students' achievement of national and international certificates, the results of science Olympiads and entrance exams to educational institutions. The article also examines the strengths and advantages of such schools, including material and technical resources, the organization of classes, their quality, and the qualifications of teachers.

Key words: Chemistry, biology, advanced subjects, specialized school, private school, training center, national and international certificates, science olympiads, innovative pedagogical technologies, educational effectiveness, project-based learning.

Kirish. Jahon miqiyosida globallashtirish jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi kunda sifatli va samarali ta‘lim tizimini saqlab qolish, uni rivojlantirish eng asosiy vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ta‘lim sohasida tizimli islohotlar o‘tkazib, uni doimiy takomillashtirib borish jahon miqiyosida davlatlar siyosatida kun tartibidagi vazifaga aylanib bormoqda. Bu borada ta‘limning rivojlanish tarixini, erishilgan natijalarni hamda ularning jamiyat taraqqiyotiga ta‘sirini o‘rganish amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu o‘rinda, ta‘lim sohasining sifati, moddiy-texnik bazasi, qamrovi kabi mezonlar mamlakatlarning taraqqiy etganlik darajasini belgilovchi omillardan biri sifatida jahon hamjamiyati tomonidan e‘tirof etilmoqda.

Dunyoning qator ilmiy tadqiqot markazlarida ta‘lim sohasining yo‘nalishlari, bosqichlari, uning mazmuni va sifatidagi uyg‘unlikni ta‘minlash borasidagi yutuqlari, samaradorligini oshirish muammolarini o‘rganish bo‘yicha salmoqli ilmiy ishlar qilinmoqda. Ayniqsa, ta‘lim sifatini baholashda Singapur, Finlandiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi davlatlar tajribasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shuningdek, ta‘lim sohasini tizimli

takomillashtirish, uning mazmuni, mohiyati, jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati va rivojlanish tarixini chuqur o‘rganish, tadqiqotlar olib borish tobora dolzarb bo‘lib bormoqda.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda ta‘lim sohasi tubdan isloh qilinib, tizimda keng miqyosda o‘zgarishlar amalga oshirildi. Madaniy-ma‘naviy rivojlanishning eng muhim poydevori – bu albatta ta‘lim tizimidir. Zamon talablari va jahon standartlariga javob beradigan, ilg‘or fan-texnika, texnologiya yutuqlarini egallab olgan kadrlarni yetishtirmasdan jamiyatni yuksaltirib bo‘lmaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ushbu tadqiqot ishida asosan tarixiy-qiyosiy tahlil, statistik ma‘lumotlarni o‘rganish, umumlashtirish va taqqoslash, pedagogik kuzatuv kabi ilmiy metodlardan foydalanildi. Shuningdek, hozirgi kunda xususiy maktabda faoliyat yuritayotgan ishchi-xodimlar bilan suhbat jarayonlari o‘tkazildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 15-sentabrda PQ-3276-son “Nodavlat ta‘lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori [1]. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil

15-sentabrda "Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori [2]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh.M.Mirziyoyev 2023-yil 26-maydagi PF-79-son "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni [3]. Ushbu huquqiy hujjatlar nodavlat ta'lim muassasalarining rivojlanishi, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan bo'lib, davlat dasturlari, huquqiy-me'yoriy-huquqiy asos sifatida o'rganildi. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi.

Tahlil va muhokama. O'zbekistonda 1992-yil 2-iyulda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Bu dasturamal hujjatda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari, ta'lim tizimi, uning boshqaruvi tarkibi, pedagog xodimlarning burch va mas'uliyatlari aniq belgilab berildi [4].

Bugun ta'lim sohasidagi islohotlarning tarixiy-siyosiy qirralarini anglash, o'zgarishlar mohiyatini tarixiy misollar asosida chuqur tahlil qilish, ularga ilmiy jihatdan baho berish dolzarblik kasb etmoqda. Mustaqillikning dastlabki yillarida barcha sohalarida bo'lganidek ta'lim tizimida ham kadrlar masalasida muammolar bor edi. Umumta'lim fanlari tizimida yetarlicha pedagog xodimlar yetishmagan [5]. Oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlari 1992-yildan tajriba asosida, 1993-yildan boshlab test orqali saralab olish joriy qilingandan keyin Respublika bo'ylab o'qituvchi pedagoglarga ehtiyoj ham, talab ham ortdi [6]. Farg'ona vodiysida aholi zich bo'lganligi bois bu ehtiyoj boshqa viloyatlarga nisbatan sezilarli darajada yuqori edi [7]. Oliy o'quv yurtlari kirish imtihonlariga tayyorgarlik ko'rish maqsadida abituriyentlarda qo'shimcha pullik dars mashg'ulotlariga bo'lgan talab ham ortdi. Natijada yakkatartib asosida repititorlik xizmatlari tashkil qilindi [8]. Ayniqsa, kimyo fanining masalalarini ishlash uslublarini, fanning o'zini o'rgatishda yakkatartibda ishlash va chiqmagan masalalarni qaytadan ko'rib chiqish orqali o'zlashtirish masalasi ushbu fan kesimida o'quv markazlarda qo'shimcha darslar tashkillanishi natijasida nodavlat ta'lim muassasalar faoliyatiga nisbatan ota-onalarda qiziqish uyg'otdi [9]. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish sohasidagi faoliyatni litsenziyalash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori chiqqanidan so'ng o'quv markazlar soni ortib, davlat imtihonlariga tayyorgarlik ko'rish imkoniyatlari yanada kengaydi [10].

Muassasa nomi fransuzcha so'zdan olingan bo'lib, "Le crayon" – "qalam bilan ilm olmoq" degan ma'noni anglatadi. Mazkur ta'lim dargohi asoschisi Xolmirzayev Hayotjon yakkatartibdagi tadbirkor sifatida 2005-yilda o'z faoliyatini ikkita o'quvchi bilan boshlagan. 2006-yilda ularning soni 16 taga yetgan, shu yilgi imtihon natijalariga ko'ra 13 tasi oliy ta'lim muassasalarida talaba bo'lishgan. 2007-yilga kelib tibbiyot institutlariga 12 ta abituriyenti o'qishga qabul qilindi. Keyingi yillarda (2008-2010) o'quvchilarning soni keskin oshib ketdi. 2007-yilgi imtihon natijalarida S.Sultonova Andijon tibbiyot institutiga kirish imtihon testidan kimyo fanidan 100% ishlab, birinchi o'rinda o'tgan. Imtihondan o'ta olmagan abituriyentlarning ota-onasi tomonidan bu jarayonga qiziqish kuchayib, tayyorgarlik uchun farzandlarini Farg'ona tumanidagi 1-IDUM kimyo fani o'qituvchisi. H.Xolmirzayevga qo'shimcha pullik dars mashg'ulotlariga berish istagi paydo bo'ladi. Viloyatdagi tumanlardan va qo'shni viloyatlardagi ota-onalar ham farzandlarini oilib kelishni boshlashadi. H.Xolmirzayev Farg'ona tumanida joylashgan 1-sonli IDUMda ijara asosida o'z faoliyatini davom ettirdi va 2010-yilda 350 ta o'quvchisi talabalikka qabul qilinib, ulardan 15 ta abituriyentlar Farg'ona davlat universitetining kimyo yo'nalishiga grant asosida qabul qilindi [11]. 2011/2012 va 2012/2013-o'quv yillaridagi abituriyentlardan nomzodlar Toshkent va Andijon tibbiyot

institutlarining davolash yo'nalishlariga eng yuqori ball bilan birinchi o'rinni egallab, talabalikka qabul qilindi. 2014-yilda Farg'ona tumanida joylashgan axborot texnologiyalariga ixtisoslashgan kollej binosida ijara shartnoma asosida o'quv markaz o'z faoliyatini kengaytirdi va bu yerda 2014-2021-yillarda o'quv mashg'ulotlari olib borildi. 2017/2018-o'quv yilida o'quvchilar soni 800 taga yetib, oliy ta'limga kirish 95-98 foizlik natijani qayd etdi. 2018/2019-o'quv yilida uchta guruhda 100, 110 nafardan o'quvchilar oliy ta'lim imtihonlarga tayyorgarlik ko'rib 290 nafari kimyo yo'nalishidagi oliy ta'limga qabul qilindi. Biroq 2019/2020-o'quv yilida pandemiya tufayli boshqa viloyat va tumanlardan bo'lgan o'quvchilar qabul qilinmadi, natijada abituriyentlar soni 150-160 nafarga tushib ketdi. Pandemiya bo'lishiga qaramasdan talabalikka qabul qilinishidagi kirish imtihonlarida ularda 95 foiz natija bo'ldi.

2021-yilda o'quv markazda 300 nafar o'quvchi uch guruhga ajratilgan holda bilim darajasiga qarab, 98 foizlik natijaga erishildi va shu yilning o'zida o'quv markaz faoliyatini xususiy maktab sifatida davom ettirish rejasi tuzilib, tuman markazida yer sotib olinib, qurilish ishlari boshlandi. 2022-yil 3-sentabrda 630 o'rinli zamonaviy maktab ishga tushdi va 700 nafar o'quvchilarning ota-onalari bu nodavlat ta'lim muassasasi bilan shartnoma imzolash taklifini bildirdilar. Ushbu xususiy maktabning bitiruvchi ilk qaldirg'ochlari aniq fanlar yo'nalishiga 100 foiz, iqtisod, tarix-ingliz, huquq-ingliz yo'nalishlariga 95 foiz bilan o'qishga qabul qilindi 2025-yilga kelib ularning soni 843 nafarga yetib milliy sertifikat olgan o'quvchilar soni 700 tani tashkil qildi [12].

Maktabda ishlayotgan o'qituvchilar o'ttiz nafar xodimlar bilan ellik nafar bo'lib, pedagoglarning barchasi o'z fanlari kesimida milliy sertifikat A+ darajasiga ega. Maktab rahbariyati tomonidan muntazam ravishda o'qituvchi xodimlar va yuqori natija ko'rsatgan o'quvchilar rag'batlantirilib kelinadi. Agar o'qituvchi chuqurlashtirilgan yoki majburiy fanlardan o'quvchisi belgilangan sertifikatga ega bo'lsa pul mukofoti bilan rag'batlantiriladi. O'quv markazga qabul 7-sinf dan boshlansa, maktabiga 8-sinf dan imtihon asosida qabul qilinadi, bir oylik to'lovi bir million besh yuz ming, o'quv markazda esa har bir fan ikki yuzi ellik mingni tashkil qiladi. Bu yerda tashkil qilingan imtiyozlar quyidagicha:

- maktab va o'quv markaz faoliyati bir-biriga bog'liq bo'lganligi sababli, o'quv markazda darslar ertalab soat 05:00 dan kechki 21:00 gacha davlat maktablaridagi o'quv mashg'ulotlariga xalaqit qilmagan holda olib boriladi;

- xususiy maktabda esa soat 08:00 dan 16:00 gacha muddatda bo'lib, tushlikdagi tanaffusda o'quvchilarga issiq ovqat bilan ta'minlangan holda dars mashg'ulotlari olib boriladi;

- o'quvchi har bir sertifikati uchun oylik to'lovni chegirma asosida to'laydi;

- viloyat olimpiadasida yuqori I, II, III o'rinlarni egallab respublika bosqichiga chiqsa maktabda bepul o'qish imtiyozini qo'lga kiritadi;

- bunday imkoniyat yana o'z mutaxassislik va majburiy fanlardan sertifikatlarini olib, eng yuqori ball yig'ib, talabalikni naqd qilgan o'quvchilarga ham beriladi;

- dastlab o'quv markaz ham maktab ham kimyo-biologiya fanlariga chuqurlashtirilgan bo'lsa-da, hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalari kirish imtihonidagi mutaxassislik fanlarining barchasi ixtisoslik kesimida chuqurlashtirilib o'tiladi. Bulardan tashqari tabiiy, ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar ixtisosliklari guruhlarida raqamli texnologiyalar zamonida yoshlarni ommaviy madaniyat, tavakkalchilikka asoslangan o'yinlardan muhofaza qilish maqsadida tarbiya fani majburiy o'rgatilib yo'nalishlaridan qat'iy nazar o'n kun davomida bitta badiy yoki ma'naviy boylikka ega bo'lgan kitobni o'qib tugatish vazifasi beriladi.

Muntazam ravishda haftaning shanba kunlari DTM testlari asosida o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirish foizlari ko'rsatiladi. Shuningdek, o'qituvchilar tomonidan tahlil qilinib, ota-onalarga e'lon qilib boriladi. Agar uch marotaba o'zlashtirish darajasi qizil hududda bo'lib, past o'zlashtirgan yoki o'zlashtira olmagan o'quvchilar ro'yxatida bo'lganlarning ota-onalari bilan tuzilgan shartnoma bekor qilinadi. O'quvchilarning soni ortib, maktabda tarbiyachi lavozimi joriy qilindi. Buning e'tiborli jihati shuki, nafaqat ta'lim monitoringi balki tarbiyaviy nazorat ham yanada kuchaytirildi.

2024-yilda bo'lib o'tgan viloyat olimpiadasida umumiy hisobda Farg'ona tumani oltita o'rinni olgan bo'lsa ulardan beshtasi "Le crayon" xususiy maktab o'quvchilariga tegishli bo'ldi. Shu besh nafar o'quvchilar qaysi fanlardan o'rin olishgan bo'lsa, shu fanlar kesimida sovrinli ichki olimpiada tashkillashtirildi. Xususan, III o'rin uchun 200 ming, II o'rin uchun 300 ming, I o'rin uchun 500 ming miqdorida pul mukofotlari bilan g'oliblar taqdirlandilar. Bunday imtiyozlar, albatta, o'quv markaz va xususiy maktabning ta'limga bo'lgan ishtiyoqini oshirishdagi afzallik tomonlaridan biridir. 2023/2024-o'quv yilida 4 nafar o'quvchi, 2024/2025-o'quv yilida 20 nafar o'quvchi oltin medal bilan muassasani bitirishdi.

O'quv markaz va xususiy maktabdan kelayotgan daromad asosan ilmga qaratilganligi bois kam ta'minlangan yoki boquvchisini yo'qotgan oilalarning farzandlariga bir qancha imtiyoz va yengilliklar shart-sharoitlar qilib beriladi. Shuningdek o'qituvchi pedagog xodimlarga yozgi ta'til davriga ham davlat maktablaridek ta'til puli to'lanadi. Kelajakdagi maqsad "Le crayon" xususiy bog'chasini ochib, boshlang'ich sinfga bolalarning qaysi fanni o'zlashtirishdagi qobiliyat va iste'dodini aniqlab yo'naltirish, bu yo'nalishda qobiliyatsiz yoki xohishi yo'q yoshlarni texnikumini ochib

kasbga yo'naltirish va oliy ta'limini ham ochib, malakali mutaxassislarni, xususan, uchunchi renessans davrida dunyo taniyidigan va nufuzli xalqaro ta'lim muassasalarida dars bera oladigan o'qituvchi xodimlarni ham yetkazib berishdir [13]

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta'lim tizimida o'quv markazlari va xususiy maktablar yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish, ularni qiziqitirgan sohalar bo'yicha chuqur bilim olishga yo'naltirishda muhim o'rin tutadi. Bunday muassasalar standart davlat ta'lim dasturlaridan tashqari, o'quvchilarga yakkatartibdagi yondashuv, zamonaviy metodikalar va qo'shimcha imkoniyatlarni taqdim etadi [14].

Maqolada ko'rib chiqilgan o'quv markazi va xususiy maktab misolida, biz ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarning iqtidorini ro'yobga chiqarish va ularni katta hayotga tayyorlash borasidagi o'ziga xos jihatlarni ko'rishimiz mumkin. O'quvchilarning yutuqlari, o'qituvchilarning malakasi va o'quv dasturlarining xilma-xilligi kabi omillar muassasaning muvaffaqiyatini belgilab beruvchi asosiy mezonlardir.

Kelajakda bu kabi ta'lim dargohlarining yanada rivojlanishi, ularning o'zaro tajriba almashinuvi va sog'lom raqobat muhitining shakillanishi mamlakat ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishi shubhasizdir. Shu bilan birga, ushbu muassasalar faoliyatining shaffofligi va jamoatchilik oldidagi hisobdorligini ta'minlash ham muhim ahamiyatga ega [15].

O'quv markaz va maktabda yaratib berilgan imkoniyatlar, shart-sharoitlardan unumli foydalanayotgan o'quvchilar muddatidan oldin oliy ta'lim muassasalarining kirish imtihonlaridagi eng yuqori ballarni sertifikatlar orqali qo'lga kiritayotganliklari ushbu tizimning samarali yo'lga qo'yilganidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Sh.M. 2017-yil 15-sentabrda PQ-3276-son "Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori. lex.uz.<https://lex.uz/doc/4664567>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-sentabrda "Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori // Халқ сўзи. 2017 йил 18-сентябрь
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Mirziyoyev Sh.M. 2023-yil 26-maydagi PF-79-son «Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni Lex.uz.<https://lex.uz/doc>.
4. Oliy Majlisning "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 1992-yil 2-iyul. lex.uz.<https://lex.uz/doc>.
5. Hatamov T. O'zbekistonda ta'lim tarixi. – Toshkent: Tafakkur, 2021. – 162 b.
6. Абдуллаев Ў. Ўзбекистонда педагогик кадрлар тайёрлаш тизимидаги ютуқ ва муаммолар (1991–2018 йй.). Тарих фан. бўй. фал. док. (PhD) ... дисс. авторефер. – Қарши, 2021. – 55 б.;
7. Шарипова Н. Фарғона водийси ўқитувчиларининг кундалик ҳаёти (1966–1991 йиллар). Тарих фан. бўй. фал. док. (PhD) ... дисс. – Андижон, 2022. – 153 б.
8. O'ktamova F. Ta'lim muassasalarida qulay sharoit va imkoniyatlar – "Farg'ona haqiqati", 2015. – №78.
9. G'ofurov A.T, Ahmedov M.A Kimyo o'qitish metodikasi.-Toshkent: O'qituvchi, 2012-Ixtisoslashtirilgan sinflarda kmiyo fanini o'qitishning o'ziga xos jihatlari, masala yechishga o'rgatish usullari – 2012. 27-b
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish sohasidaagi faoliyatni litsenziyalash tartibini takomillashtirish to'g'risida" gi Qarori-2018-yil 27 mart, №241
11. Jaloldinov N. -"Le crayon" xususiy maktabi o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Farg'ona tumani Paxtakor ko'chasi 86-uyda istiqomat qiladi.
12. "Le crayon" o'quv markazi va xususiy maktabi yillik hisobotlari
13. Xolmirzayev H. – "Le crayon" xususiy maktabi direktori.Farg'ona tumani Marg'ilon mfy Quvonch ko'chasi 64-uyda istiqomat qiladi.
14. Ходжаев Б., Кодиров Д. Ўзбекистонда нодавлат олий таълим муассасалари фаолиятини такомиллаштириш масалалари // Иқтисод ва молия. – 2020. - №3. - Б. 45-52.
15. Bobojonov A. Muallimlar mahorati. – "Farg'ona haqiqati". 2024. – №40. 3-b